

Oydin Hojiyeva Publitsistikasining Janriy Tarkibi

Gulchiroy Egamberdiyeva¹

Annotatsiya: Maqolada Oydin Hojiyeva publitsistikasining voqeiy-informatsion xabar, tahliliy maqola, echerk, esse va unga yondosh badia janrlarida ijod qilgani misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: Publitsistika, janr, xabar, reportaj, tahliliy maqola, ocherk, felyeton, esse, pamphlet, jurnalistika, jurnal, muallif, muharrir, portret, tasvir, badiiy vosita.

Publitsistika janr jihatidan voqeiy-informatsion (xabar, reportaj, hisobot), tahliliy (maqola), badiiy-publitsistik (ocherk, felyeton, pamphlet, yozuvchi maqolasi) turlarga bo`linadi. Badiiy publitsistik janrlar — ocherk, esse, felyeton pamphletlarda badiiy adabiyot unsurlari ko`zga tashlanadi. Ularda Obrazlilikka asoslanib, o`xshatish, mubolag`a, sifatlash kabi badiiy vositalardan foydalilanadi. Tahliliy maqola, siyosiy sharhlarda fakt, dalil, tahlil kabi jurnalistik nuqtayi nazar ko`proq namoyon bo`ladi. Ammo ikki holatda ham badiiy adabiyot yoki jurnalistik qarashlardan butunlay yiroqlashilmaydi, ana shu jihat bilan bunday ijod namunalarini adabiyot va jurnalistikani bog`lab turuvchi oltin ko`prikka qiyoslashadi. Oydin Hojiyeva publitsistikasining voqeiy-informatsion xabar janrida ham, tahliliy maqola janrida ham, echerk, esse va unga yondosh badia janrida ham barakali ijod qilgan. Shoira avval “Sharq yulduzi”, so`ng “Saodat” jurnallarida mehnat faoliyatini olib borgan davrlarda voqeiy-informatsion xabar va reportajlarning ko`pchiligiga mualliflik va muharrirlik qildi. “Ruhimizga yong`in tushmasin”, “Meni iztirobga solar bu o`ylar”, “Millatning qayg`usi nima?”, “Qishloq doshlarim”, “Yo`qotganim topsamki shoyad”, “Odamiylik saranjomlikdan boshlanadi” kabi tahliliy maqola janriga mansub asarlarida mustaqillikka erishish ostonasida til masalalari, o`zbek xotin-qizlarining og`ir dala mehnati, o`zligini, o`z asriy an`ana va urf-odatlarini unutgan xalq ahvoli, tabiatga munosabat masalalari xususida so`z boradi. Ochil Tog`ayev o`zining “O`zbek badiiy publitsistikasi” kitobida maqola janri haqida shunday fikr yuritgan: “Maqolada mantiqiy muhokama asosiy o`rin tutadi, fakt esa yordamchi rol o`ynaydi. Publitsist ayrim tipik faktlar asosida keng va chuqur umumlashmalarga o`tadi. Bu umumlashmalarni yangi-yangi fikrlar asosida izchil davom ettirib, puxta yakunlaydi”². Jumladan, “Millatning qayg`usi nima?” maqolasida millatning sha`ni, qadr-qimmati, milliy urf-odat va qadriyatlarining toptalgani, oyoqosti qilingani muhokama qilinib, bunda Bahouddin ziyoratgohining otxonaga aylantirilgani, G`ijduvon shahrida Ulug`bek qurdirgan madrasaning bozorchi-yu yo`lovchilar ot-aravasini, ulovini bog`laydigan joy bo`lgani haqidagi dalillar muhokamadagi fikrni asoslash uchun keltiriladi. “Qishloq doshlarim” maqolasida o`rta maktabni ham bitirmagan sodda, samimi, iste`dodli, ertakchi-yu laparchi, mehribon-u chaqqon, sarishta-yu farishta bo`lgan mehnatkash ayollarning og`ir dala mehnatiga jalb qilingani, farzandini tashlab bo`lsayam chopig`-u terimga yuguradigan, ko`ksida bir parcha qo`rg`oshinday katta dard-hasrat bo`lishiga qaramay, hayotdan, kelajakdan umudini uzmagan, o`sha og`ir yillarda, kunlarda ham o`zlaricha yashashning zavqini topa oladigan matonatlari, mushtipar ayollar hayoti muhokama qilinib, ularning hayotidan olingan ma`lum bir voqe-a-hodisalar misol qilib keltiriladi: “Sarvaroy qaylig`i Xalilni har kecha kutdi. Umidlardan axtardi, qo`shiqlardan qidirdi. kanal qazganda bir xayoli u bilan band edi. Paxta terganida, tim-tirs qanorlarni o`g`li Naim bilan aravaga yuklaganda uni yo`qladi. Bo`z boladay yer ag`dardi. Chigit ekdi, yagana qildi. Bolalarning rizqini butun qildi. Qishloq to`ylarida barmoqlari qavarguncha Namozning bevasi Robiya bilan jo`rovoz doira chaldi. Lapar aytdi. Uning childirmasi yuraklarga titroq, xayollarga bo`ron solardi.” Ko`rinib turibdiki, Oydin Hojiyeva maqolalarida obrazlilik, hissiy ta`sir ko`rsatish

¹ Navoiy viloyati Qiziltepa tuman 13-maktab o`qituvchisi

² Тоғаев О. Ўзбек бадиий публицистикаси. Т.: «0 ‘qituvchi», 1976. –В. 62.



xususiyatlari bo`lsa-da, davrning ijtimoiy-siyosiy masalalariga munosabat, hozirjavoblik yaqqol namoyon bo`lgan.

Ocherk (rus. chertit, ocherchivat — chizmoq, bayon qilmoq, tasvirlamoq) hayotda yuz bergan muayyan voqeа-hodisaning asosiy xususiyatlarini yoki kishilar xarakteridagi muhim belgilarni qisqa, ixcham, yaxlit tasvirlovchi badiiy publitsistik janrdir. Ochil Tog‘ayevning fikricha, “badiiy adabiyotga xos belletristik va gazeta janrlariga xos publitsistik xususiyatlarning uzviy birligi ocherkning muhim janr xususiyatini belgilaydi”³, ya’ni bir vaqtning o‘zida ocherkda hayotning badiiy manzarasi, voqeа, qahramon taqdiri yaratiladi va ijtimoiy jihatdan keng, mufassal izohlanadi. Ocherklar manzilli va manzilsiz bo‘ladi. Manzilsiz ocherkda hujjatlilik faqat unda aks ettirilgan ijtimoiy hodisalardir, boshqa o‘rinlarda xuddi o‘zga janrlarda bo‘lgani kabi muallifning qo‘li erkendir. Bunda aniq manzilni ko‘rsatmasdan asarga to‘qima personajlar kiritish, badiiy to‘qima va umumlashtirishdan keng foydalanish mumkin. Manzilli (hujjatli) ocherklarda esa yozuvchi shunday shaxs yoki hayot parchasini tanlab olishi kerakki, u voqelik uchun tipik bo‘lsin. Ayni paytda, badiiy to‘qima faktning hujjatlilik xususiyatini ko‘mib yubormasligi, balki uni qabariqli tarzda ochishi lozim; bu hamma vaqt hayotiy faktga asoslanishi shart. Ochil Tog‘ayev ocherkning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini jamlab, uning uch xili (1. Portret ocherk. 2. Safarnoma (yo‘l ocherki). 3. Muammo ocherk) mashhurligini ta’kidlaydi. Uningcha, “portret ocherkda asosan bir kishining hayoti, taqdiri markaziy o‘rin tutadi. Muallifning qishloqlar, shaharlar va mamlakatlararo safar paytida yig‘ilgan mushohada va mulohazalari, o‘rgangan va eshitganlarining badiiy publitsistik tasviriga safarnoma (yo‘l ocherki) deyiladi. Muhim siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy muammolar: a) kishilar obrazlari, b) obrazli publitsistik vositalar orqali maxsus tadqiq etilgan ocherklar muammo ocherk deb ataladi”⁴.

Oydin Hojiyevaning O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiyaxonim Isroilova haqidagi “Baxtim shul – o‘zbekning Zulfiyasiman”, follarshunos olma, shoira Muzayyana Alaviyani xotirlab yozgan “Yurtim, eslaysanmi Muzayyanani?”, adiba, shoira Saida Zunnunova yodi haqidagi “Odamlar, avaylang bir-biringizni”, tarjimon, matnshunos Kibriyo Qahhorova haqidagi “Suhbatlar guli, davraning ziynati” ocherklari, asosan, portret ocherk hisoblanadi. Chunki unda muallif aniq bir shaxs hayoti va taqdiriga doir voqeа-hodisalarni, shaxs xarakteriga xos xususiyatlarni aniq, ixcham va yaxlit tarzda ifodalaydi. Shuningdek, bu ocherklar manzilsiz ocherklarga kiradi. Jumladan, muallifning Zulfiya haqidagi ocherkida Zulfiyaxonimning ham inson, ham ijodkor sifatidagi qiyofasi, ko`ngli va ko`zguda aks etgan portreti mufassal tasvirlanadi. O.Hojiyeva ustozining o‘zi bilan birga kechgan faoliyati, suhbatlari haqida yozgani uchun ham ocherklar jonli, tabiiy va samimiy chiqqan. Muallif Zulfiya haqida ko`nglidan kechirganlarini, o`y-mushohadalarini yozar ekan, unga ustoz bilan bo`lib o`tgan qaysi bir voqeа-hodisani misol – dalil sifatida keltiradi. Voqealar ham tartibsiz emas, aniq yil va oylari ko`rsatilib, xronologik ketma-ketlikka amal qilgan holda bayon etiladi. Masalan: “1965-yil, may oyi.

Universitetni bitirgach, yana Zulfiyaxonimning huzurlariga bordim. Toshkentda qolib ishslash istagimni aytdim.o`sha paytlari matbuotda she’rlarim paydar-pay chiqib, oq yo`llar berilib turgan edi. Zulfiya opa ozgina sukut saqlab turdilar-da, “Sharq yulduzi” jurnaliga qo`ng`iroq qildilar. Mas’ul kotib shoir Shuhratga men haqimda gapirib, maqtadilar. Bir payt menga qarab, Oydinjon, chiqib turing, maqtovimdan esankirab qolmang, tag`in dedilar... Shunday qilib ustozning tavsiyasi bilan 1965-yil 1-iyuldan jurnalning nazm bo`limida adabiy xodim sifatida ish boshladim, so`ng bo`limni boshqardim, bu qadrdon adabiy jamoada 11 yil mehnat qildim. 1970-yil, yoz oylari. Zulfiya opaning qoshiga bordim. Ancha gurunglashdik. Ustoz birdaniga so`rab qoldilar:

- ✓ Nega uyushmaga a’zo bo`lishga harakat qilmayapsiz?
- ✓ Qanday bo`larkan? Tavsiya berasizmi? – dedim.
- ✓ Jonim bilan, – dedilar va uch kunda tavsiya yozib berdilar.

³ Tog‘ayev O. Publitsistika janrlari. T.: «0 ‘qituvchi», 1976. –B. 62.

⁴ Tog‘ayev O. Publitsistika janrlari. T.: «0 ‘qituvchi», 1976. –B.62.



Ustoz Mirtemir, Shuhrat, Hamid G`ulomlar ham yozib berishdi. 1971-yilning avgustida O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindim”⁵.

Ocherkda Zulfiyaxonim chiroyli, sipo kiyinganni yaxshi ko`radigan, o`zлari ham basavlat, vazmin kiyinib yuradigan, o`quvchiga hurmat-ehtirom, ustozlarga ixlos va sadoqat bilan qaraydigan, o`z qadrini himoya qiladigan, do`satlari, yaqinlariga nihoyatda mehribon, ularning qiyin-qattiq kunlarida, yaxshi-yomon lahzalarida yonida bo`lishni, ko`nglini ko`tarishni yaxshi ko`radigan, oljanob, tinib-tinchimas, o`zini tamoman el-u yurt qayg`usi, sevinchi bilan tirik deb biladigan ulug` san`atkor sifatida tasvirlanadi. Uning haroratli, kamalak ranglaridek xilma-xil she`rlarida nimaiki ezgulik bo`lsa, insonparvarlik, hayotsevarlik shu'lalari bo`lsa – hammasi mana shu bedor yurakdan, o`ktam va mehnatkash shoira Zulfiyaning hayotidan, kundalik turmush-tarzidan zarra-zarra bo`lib, sehrli bir olov bo`lib ijodiga o`tgan. O.Hojiyeva Zulfiyani tug`ishgan opasidan ham yaqinroq inson – o`zining ham shaxsiy hayotida, ham ijodiy faoliyatida ko`mak, maslahat berib turguvchi suyangan tog`i deb bilishi, uning oldida ulkan qarzdorlik sezishini ocherk davomida bot-bot takrorlaydi.

“Yurtim eslaysanmi Muzayyanani” ocherkida shoira, olima bo`lgan Muzayyana Alaviya hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar, uning shaxsiyatini ochib beruvchi voqeа-hodisalar haqida so`z boradi. Muzayyana Alaviya respublikamizning juda ko`p shahar va qishloqlarida bo`lib, turli kasbdagi ayollar bilan, chechan va zukko momolar, baxshilar, xalq shoirlari, xalfalar bilan uchrashib, qayerda baxshiman degan bir odam daragini eshitsa, yalangayoq yer kechib, qiziloyoq qir kechib, goh piyoda goh ulovda yugurgan, avloddan avlodga meros bo`lib kelayotgan xalq og`zaki adabiyoti namunalarini mehr-muhabbat bilan yozib olardi. Ocherkda olima portreti soddagina, samimi, dilkash, odamoxun, upa-yu marjonga xushi yo`q, nuqul odob-axlog`-u ibo-hayodan gapiradigan, labida doim kulgisi bo`lgan, ko`ngli pok, vijdonli bir ayol sifatida chiziladi. Qozoq checha bilan bo`lgan bir voqeа tasvirida ham buni yaqqol ko`rish mumkin: matallar, rivoyat, dostonlarni yozib olish uchun qishlolarda bir necha kun qolib ketadigan M.Alaviya cho`l ovullaridan birida qozoq checha bilan qadrdon bo`lishibdi. Suhbat chog`ida chechaning o`g`lidan muqaddas tosh haqida eshitib, u yerga olib borishni iltimos qilibdi. Ikki xarsangtosh orasida bir kishi o`tgulik joy bo`lib undan hamma ham o`ta olmas ekan. Agar pokiza, to`g`ri, halol odam o`tsa, tosh yo`l berarkan, nopol yoki harom-harishga aralashgan odam o`tsa, tosh yo`l bermay qisib qolarkan. M.Alaviya sinab ko`rish uchun toshlar orasidan o`tibdilar, ammo qozoq checha har chand urinmasin tosh uning o`tishiga yo`l bermabdi. U nuqul olimaga qarab, buning ilmi zo`r chiqdi, tosh ushlab qolmadni, dermish. Shoira sifatida “Sevinchlarim”, folklorshunos olima sifatida “O`zbek xalq qo`shiqlari”, “Oq olma, qizil olma”, “Yangi laparlar”, shuningdek, xalqning eng yaxshi fazilatlari, urf-odatlari, go`zal xulqlarini jamlagan “Odamiylik haqida”, “Kamtarinlik – go`zal fazilat”, “Yon qo`shnim – jon qo`shnim”, “Ahil bo`ling” singari risolalar yozgan Muzayyana Alaviya akademik Vohid Zohidov ta`biri bilan aytganda, uning o`zi tugal poeziyadir. Ocherkda olima M.Alaviyaning olim va odam sifatidagi tugal portreti mahorat bilan ochib berilgan.

“Odamlar avaylang bir-biringizni” portret ocherki shoira Said Zunnunova xotirasiga bag`ishlangan. Ocherk shoira biografiyasi bilan boshlanadi. Ocherkni o`qir ekanmiz, insoniy fazilatlarni kuylagan she`rlari, tubanlik sig`magan o`ylari bilan xalq qalbidan chuqur joy olgan shoira ko`proq uyim-joyim deydigan sarishta ayol, farzandi uchun nihoyatda kuyunchak ona hamda sadoqatli umr yo`ldoshi sifatida ko`z oldimizda gavdalanadi. Said Ahmad qamalgach, S.Zunnunovani ham Yozuvchilar uyushmasi a'zoligidan o`chirib, ishdan haydaganlarida yozuvchilarining qo`lyozmalarini mashinkada terish bilan tunni tongga ulab ro`zg`or tebratgan, yolg`izgina farzandi Nodiraxonni yer-u ko`kka ishonmay, behad parvona bo`lib, suyib, alqab voyaga yetkazgani, qay bir davrada bo`lmasin Said Ahmadni maqtab, uni yangidan yangi asarlar yozishga ilhomlantirgani ayni haqiqatdir. Shu boisdan u matonatli va sadoqatli o`zbek ayoli sifatida e'tirofga loyiq. “Bilakday qalin sochlari, keng peshonasi, sutga chayilganday oppoq yuzlari, samimi muomalasi”⁶ kishini sehrlab qo`yadigan bu malohatli ayol boshiga qanday ish tushmasin, hech qachon yig`lamagan, isyonni bilmagan, sabr va bardoshni dastak qilib yashagan. O`zini avvalo ayol, rafiqqa, ona, do`sit deb bilgan, qay yerda bo`lmasin, qachon

⁵ Хожиева О. Тўрт танҳо. – Т.: Ўзбекистон, 2013. –В. 7.

⁶ Хожиева О. Тўрт танҳо. – Т.: Ўзбекистон, 2013.



bo`lmasin inson ko`nglini eng balandda tutgan shoira bugun o`z she`rlari bilan qalbning eng yuqori qasrida turishi shubhasiz. Ocherkda yoritilgan har bir voqeа shoira Saida Zunnunova haqida ana shunday xulosaga kelish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tofaev O. Ўзбек бадиий публицистикаси. Т.: «O‘qituvchi», 1976.
2. Tog‘ayev O. Publitsistika janrlari. Т.: «O‘qituvchi», 1976.
3. Ҳожиева О. Тўрт танҳо. – Т.: Ўзбекистон, 2013.

